

ZAMONAVIY YONDASHUVLAR ASOSIDA BO'LAJAK TARBIYACHILARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI OSHIRISH TAMOYILLARI

*Seitmuratova Venera Jumamuratovna, Toshkent amaliy fanlar
universiteti*

*“Maktabgacha ta’lim metodikasi” kafedrası katta o‘qituvchisi
Halimova Gulasal Xamroqulovna MT-25-61 guruhi, 1-kurs talabasi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini oshirishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Tadqiqotda zamonaviy pedagogik ta'lim jarayonida integratsiyaning o'rni va ahamiyati tahlil qilinib, fanlararo bog'liqlik asosida ta'limni tashkil etish bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarligini oshirishda muhim omil ekanligi asoslab berilgan. Shuningdek, kasbiy kompetentlikning tarkibiy qismlari – bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy sifatlarni shakllantirishda integrativ yondashuv, amaliy mashg'ulotlar hamda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish yo'llari ko'rsatib o'tilgan. Tadqiqot natijalari bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirish va maktabgacha ta'lim tizimi uchun raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: zamonaviy yondashuv, kasbiy kompetentlik, bo'lajak tarbiyachi, pedagogik ta'lim, innovatsion texnologiyalar.

ПРИНЦИПЫ ПОВЫШЕНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ ВОСПИТАТЕЛЕЙ НА ОСНОВЕ СОВРЕМЕННЫХ ПОДХОДОВ

**Сеитмуратова Венера Жумамуратовна,
старший преподаватель кафедры «Методика дошкольного
образования» Ташкентского университета прикладных наук
Халимова Гуласал Хамрокуловна,
студентка 1 курса, группа MT-25-61**

Аннотация: В данной статье на основе современного подхода раскрываются теоретические и практические аспекты повышения профессиональной компетентности будущих воспитателей. В исследовании анализируется роль и значение интеграции в современном процессе педагогического образования и обосновывается, что организация обучения на основе междисциплинарных связей является важным фактором повышения профессиональной подготовки будущих воспитателей. Также показаны пути формирования структурных компонентов профессиональной компетентности — знаний, умений, навыков и личностных качеств — посредством интегративного подхода, практических занятий и использования инновационных педагогических технологий. Результаты исследования способствуют совершенствованию подготовки будущих воспитателей к профессиональной деятельности и подготовке конкурентоспособных специалистов для системы дошкольного образования.

Ключевые слова: современный подход, профессиональная компетентность, будущий воспитатель, педагогическое образование, инновационные технологии.

PRINCIPLES OF ENHANCING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE EDUCATORS BASED ON MODERN APPROACHES

**Seitmuratova Venera Jumamuratovna,
Senior Lecturer of the Department of Preschool Education
Methodology, Tashkent University of Applied Sciences
Halimova Gulasal Khamroqulovna,
First-year student, group MT-25-61**

Abstract: This article presents the theoretical and practical aspects of improving the professional competence of future educators based on a modern approach. The study analyzes the role and importance of integration in the contemporary pedagogical education process and substantiates that organizing

education on the basis of interdisciplinary connections is an important factor in enhancing the professional training of future educators. In addition, the ways of developing the structural components of professional competence—knowledge, skills, abilities, and personal qualities—through an integrative approach, practical training, and the use of innovative pedagogical technologies are highlighted. The research results contribute to improving the readiness of future educators for professional activity and to training competitive specialists for the preschool education system.

Keywords: modern approach, professional competence, future educator, pedagogical education, innovative technologies.

KIRISH. Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirish, uni xalqaro mezonlar asosida yangilash va modernizatsiya qilish bugungi kunda davlat siyosatining muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri sanaladi. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonunida belgilanganidek, tarbiyachilarning kasbiy malakasini oshirish, pedagogik mahoratlarini yanada takomillashtirish hamda ta'lim-tarbiya jarayonini zamonaviy va samarali metodlar asosida tashkil etish dolzarb vazifalar qatoriga kiradi [1].

Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish pedagogik ta'lim jarayonining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, zamonaviy yondashuvlar, innovatsion pedagogik texnologiyalar hamda fanlararo integratsiya asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarligini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi. Zamonaviy yondashuv ta'lim jarayonining uzviyligini ta'minlab, bolalar shaxsining har tomonlama kamol topishiga xizmat qiladi hamda ularning bilish faoliyatini tabiiy va mantiqiy ketma-ketlikda rivojlantirishga ko'maklashadi. Maktabgacha ta'lim jarayoniga innovatsion g'oyalarini tatbiq etish tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarligini yanada mustahkamlaydi, pedagogik fikrlash doirasini kengaytiradi va o'quv-tarbiyaviy ishlarni zamonaviy metodik yondashuvlar asosida samarali tashkil etishga undaydi. Shu bilan birga, zamonaviy

yondashubni integrativ yondashuv asosida olib borilganda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar bilan ishlash jarayonida fanlararo aloqadorlikni ta'minlab, ta'lim-tarbiya faoliyatini real hayotiy vaziyatlar bilan uyg'un holda tashkil etishga xizmat qiladi. Buning natijasida bolalarda mustaqil tafakkur yuritish, ijodiy fikrlash va muloqot ko'nikmalari yanada rivojlanadi, tarbiyachilar uchun esa o'z kasbiy faoliyatini innovatsion yondashuvlar asosida takomillashtirish imkoniyatlari kengayadi.

Mazkur maqolaning maqsadi — zamonaviy yondashuvlar asosida bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini oshirish tamoyillarini nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Ta'lim tizimida muhim yo'nalishlardan yana biri — xalqaro ta'lim standartlarini o'rganish va o'qitish metodlarini global tajribalar bilan uyg'unlashtirishdir. Zamonaviy yondashuvlar deganda, eng avvalo, raqamli texnologiyalar nazarda tutiladi. Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini shakllantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish ta'lim jarayonini yanada samarali va interfaol qiladi hamda tarbiyachilarning media kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kompetensiya – bu kutilgan natijaga olib keluvchi faoliyat belgisidir. U bilim mahsuli bo'lib, mutaxassis tomonidan uni amaliyotda qo'llay olish qobiliyatidir. Kompetensiyaning bilimdan farqi shundaki, vazifani amaliy bajarmasdan turib, uni aniqlab ham, baholab ham bo'lmaydi. Malaka kompetentlikning muhim mezon bo'lib, u turli holatlarda, shu qatori muammoli vaziyatlarda ham bir necha bor qo'llash natijasida namoyon bo'ladi [2].

Tarbiyachilarning kreativligi ularning bolaga bo'lgan yondashuvi va ta'lim jarayonini qanday o'tishiga bog'liq bo'ladi. Tarbiyachi o'z ustidan uzluksiz va to'xtovsiz ishlashlari kerak bo'ladi. Bu qobiliyatni yangiliklarga intilish, zamon talablari va texnologiyalar bilan birga qadam tashlash, muntazam ravishda harakatlar orqali shakllantiriladi. Tarbiyachi qanchalik kreativ bo'lib har bir

darsga individual yondashsa dars bolalar uchun shunchalik qiziq va zavqli o'tadi [3].

R.G'ofurovaning fikricha pedagogik kompetentlikni nafaqat bilim, balki amaliy ko'nikmalarni ham o'z ichiga olgan integratsion jarayon sifatida tasvirlaydi [4]. U o'z tadqiqotida, tarbiyachilarning bilimlarini real hayotdagi muammolarni hal qilishda qo'llay olish qobiliyatini rivojlantirishning ahamiyatini alohida qayd etadi.

N.Saidova ilmiy ishlarida kompetensiya yondashuvini bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini shakllantirishda asosiy prinsip sifatida ko'rsatadi [5]. Uning fikricha, kompetensiya yondashuvi pedagogning nafaqat akademik bilimlarini, balki pedagogik jarayonni samarali boshqarish va o'quvchilarga ta'lim berishda muammolarni hal qilish qobiliyatlarini ham o'z ichiga oladi. Shuningdek, Saidova o'quv jarayonini faqat nazariy bilimlar bilan emas, balki amaliy mashg'ulotlar bilan ham boyitish zarurligini ta'kidlaydi.

F. Maxmudova pedagogik kompetentlikni rivojlantirishda shaxsiy rivojlanish va o'z-o'zini baholashning o'rni haqida yozgan[6]. U, shuningdek, tarbiyachilarning o'z kasbiy faoliyatini tahlil qilish va baholashga qaratilgan metodlarni taklif etadi. Maxmudova o'z-o'zini baholash jarayonida tarbiyachilarning o'z bilim va ko'nikmalarini tahlil qilish, ularni muntazam ravishda yangilab borish va kasbiy faoliyatdagi kamchiliklarni bartaraf etishga imkoniyat yaratishni zarur deb biladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini zamonaviy yondashuvlar asosida oshirish masalasini o'rganishda, pedagogik va ilmiy izlanishning o'zaro uyg'unlashgan bir qator metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot metodlari muammoning nazariy asoslarini aniqlash, amaliy tajribani tahlil qilish hamda olingan natijalarning ishonchliligini ta'minlashga xizmat qildi.

Birinchidan, ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish va umumlashtirish metodi orqali kasbiy kompetentlik, zamonaviy yondashuvlar, integrativ ta'lim va

innovatsion pedagogik texnologiyalar masalasiga oid mahalliy va xorijiy ilmiy manbalar o'rganildi.

Ikkinchidan, ta'lim jarayonini kuzatish metodi bo'lajak tarbiyachilar bilan olib borilgan mashg'ulotlar jarayonida qo'llanildi. Kuzatuvlar davomida talabalarning o'quv faolligi, kasbiy bilim va ko'nikmalarni egallash darajasi, innovatsion texnologiyalarga bo'lgan munosabati hamda amaliy faoliyatdagi ishtiroki tahlil qilindi.

Uchinchidan, taqqoslash va tizimlashtirish metodlari yordamida an'anaviy va zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etilgan ta'lim natijalari o'zaro solishtirildi. Olingan ma'lumotlar asosida bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar tizimlashtirildi hamda muhim pedagogik tamoyillar ajratib ko'rsatildi.

To'rtinchidan, pedagogik tajriba-sinov ishlari tadqiqotning asosiy amaliy bosqichi sifatida amalga oshirildi. Tajriba-sinov jarayonida zamonaviy yondashuvlar, integrativ ta'lim modeli va innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan mashg'ulotlar tizimi sinovdan o'tkazildi. Tajriba natijalari bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy bilim, ko'nikma va malakalaridagi o'zgarishlarni aniqlashga imkon berdi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini oshirishda quyidagi asosiy tamoyillar muhim ahamiyat kasb etadi: Integrativ yondashuv tamoyili — fanlararo bog'liqlik asosida tashkil etilgan ta'lim bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy bilimlarni yaxlit tizim sifatida shakllantiradi;

Amaliy yo'naltirilganlik tamoyili — nazariy bilimlarni amaliy mashg'ulotlar orqali mustahkamlash kasbiy ko'nikma va malakalarni rivojlantiradi;

Innovatsion texnologiyalardan foydalanish tamoyili — interfaol metodlar, raqamli vositalar va pedagogik texnologiyalar ta'lim samaradorligini oshiradi;

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv tamoyili — bo'lajak tarbiyachilarning individual qobiliyatlari va ehtiyojlarini hisobga olish kasbiy o'sishga xizmat qiladi.

Tajriba-sinov ishlari natijasida ushbu tamoyillar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarlik darajasini sezilarli darajada oshirganligi aniqlandi.

Muhokama. Olingan natijalar shuni tasdiqlaydiki, an'anaviy o'qitish usullarigina bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini to'liq shakllantirish uchun yetarli emas. Zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni tarbiyachilarning kasbiy bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy sifatlarini kompleks rivojlantirish imkonini beradi. Integratsiyalashgan, innovatsion va amaliy yo'naltirilgan ta'lim modeli maktabgacha ta'lim tizimi uchun yuqori salohiyatli mutaxassislar tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, zamonaviy yondashuvlar asosida bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini oshirish ta'lim jarayonini yangicha tashkil etishni talab etadi. Integrativ yondashuv, innovatsion pedagogik texnologiyalar va amaliy mashg'ulotlarga asoslangan ta'lim bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga puxta tayyorlashga xizmat qiladi. Mazkur tadqiqot natijalari pedagogik ta'lim amaliyotida samarali foydalanish uchun tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 16-dekabrdagi O'RQ-595-son "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risi" dagi Qonuni.
2. S.B.Qorayev, Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'limning asosiy jihatlari. Academic Research in Educational Sciences VOLUME 3 | ISSUE 1 | 2022 ISSN: 2181-1385Scientific Journal Impact Factor (SJIF): 5.723
3. A.X. Bozorova, Zamonaviy yondashuvlar asosida bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish. International scientific journal "Interpretation and researches" Volume 1 issue 1 (47) | ISSN: 2181-4163 | Impact Factor: 8.2, 37-bet.
4. G'ofurova, R. (2019). Pedagogik kompetentlik va uning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar. Toshkent: Pedagogika nashriyoti.

5. Saidova, N. (2021). Kompetensiya yondashuvi va tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish. Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti.
6. S.B.Qorayev, Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'limning asosiy jihatlari. Academic Research in Educational Sciences VOLUME 3 | ISSUE 1 | 2022 ISSN: 2181-1385
7. V.J.Seitmuratova, Competence-based approach to children's creativity through karakalpak folklore in the republic of Karakalpakstan. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali UIF-2023: 8.2 | 2181-3035 | № 18
8. Z.P.Klicheva, V.J. Seitmuratova Mektepke shekemgi jastag'1 balalardın tayanish kompetenciyların qalıplestiriwde qaraqalpaq xalıq ertekleriniń áhmiyeti. Muǵallım xám úzliksez bilimlendiřiǵ. ISSN 2181-7138 Илимий-методикалық журнал. № 2/3 Нөкис — 2025. 302-309-betlar.
9. Z.P.Klicheva, V.J. Seitmuratova Mektepke shekemgi jastag'1 balalardın tayanish kompetenciyların qalıplestiriwde qaraqalpaq xalıq ertekleriniń áhmiyeti. Muǵallım xám úzliksez bilimlendiřiǵ. ISSN 2181-7138 Илимий-методикалық журнал. № 2/3 Нөкис — 2025. 302-309-betlar.